| Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li | |
| Перспективное развитие промышленной кооперации между странами | 1212 |
| Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы | |
| Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar | 1218 |
| Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna | |
| Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili..... | 1222 |
| Nematov Inatillo Ubaydullayevich | |
| Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish..... | 1228 |
| Umurzakova Adiba Ochilovna | |
| Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari..... | 1232 |
| Raxmanov Ilhom Xurramovich | |
| Факторы развития культурного туризма в Узбекистане | 1238 |
| Пулатова Сурайё Юлдашевна | |
| Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике | 1242 |
| Рафиева Зарина Хусановна | |
| Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries | 1246 |
| Akhmedov Doniyorbek | |
| O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari | 1250 |
| Azizova Manzura Ibragimovna | |
| The theoretical importance of product cost reduction in industrial production | 1254 |
| Dilfuza Baxramovna Safarova | |
| Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari..... | 1261 |
| Shamsiyev O'ktam Sayftidinovich | |
| Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari..... | 1266 |
| Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna | |
| Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati..... | 1272 |
| Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li | |
| Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari | 1277 |
| Ibragimov Gafurjan Axmetovich | |
| Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi..... | 1282 |
| Ibragimov Mansur Axmedovich | |
| Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)..... | 1286 |
| Mamatqulov Omonulla Mamayusupov | |
| Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами..... | 1294 |
| Мансурова Севара Мансуровна | |
| Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash | 1297 |
| Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna | |



O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich

PhD, Toshkent moliya instituti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada respublikamizning qator viloyat va shaharlarida tadbirkorlarning raqamli marketing texnologiyalarini joriy etilish holatini baholash va faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar so'rovnomda tahliliy o'rjanilgan.

Kalit so'zlar: "Digital government", "Digital marketing", "Digital management", "Kaizen", "Just in time", "Big Data" va "Cloud Somputing" moliyaviy menejment, raqamli marketing, marketing imkoniyatlari, marketing texnologiyalari, samaradorlikni baholash, raqamli transformallahuv, sun'iy intellekt.

Abstract: In this article, the factors influencing the assessment and operation of digital marketing technologies of entrepreneurs in a number of regions and cities of our republic have been analytically studied by means of a questionnaire.

Key words: "Digital government", "Digital marketing", "Digital management", "Kaizen", "Just in time", "Big Data" and "Cloud Somputing" financial management, marketing opportunities, marketing technologies, performance evaluation, digital transformation, artificial intelligence.

Аннотация: В данной статье с помощью анкетирования аналитически изучены факторы, влияющие на оценку и работу технологий цифрового маркетинга предпринимателей в ряде регионов и городов нашей республики.

Ключевые слова: "Digital government", "Digital marketing", "Digital management", "Kaizen", "Just in time", "Big Data" and "Cloud Somputing", финансовый менеджмент, цифровой маркетинг, маркетинговые возможности, маркетинговые технологии, оценка эффективности, цифровые технологии трансформация, искусственный интеллект.

KIRISH

Iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda raqamli marketing tamoyillaridan foydalanishning hozirgi holati qay holatda ekanligi yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomma natijalari asnosida mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqamli marketingdan foydalanish darajasini tahlil qilib, mulohazalarimizni davom ettiramiz. Sir emaski, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tadbirkorlarni qiyab kelayotgan masalalar yoritilib, ularga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Aytish joizki, bugun tadbirkor uchun eng katta qurol so'z va faoliyat erkinligining berilganligi bo'lib, bu demokratik rivojlanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan mamlakatlar uchun xos bo'lgan samarali yo'l hisoblanadi.

Bu borada yurtboshimiz "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqr kirib bormoqda... Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq... Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infrazivilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq qanchalik qiyin bo'lmashin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi" deya ta'kidlab o'tganliklari ham bejiz emas^[1].

Fikrimizcha, barcha masalalarga qarsak chalish bilan javob qaytaradigan bo'lsak, bizning oldimizda turgan muhim muammolarni hal etishda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin.

Tadbirkorni bugungi kunning ta'biri bilan aytganda davlatni boy qiluvchi, har qanday iqtisodiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuch desak xato aymagan bo'lamiz. Chunki tadbirkor o'z sarmoyasi orqali iqtisodiyotda qo'shimcha qiymat yaratib, iste'molchilarning qondirilmagan ehtiyojlarini qondiradi. Iqtisodiyotning asosiy qon tomiri bo'lgan pul oqimi harakatini tezlashtiradi.



Bugun raqamli transformatsiya bizga real iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqamli marketingdan foydalanishni ta'minlamasdan turib yuqori iqtisodiy ko'rsatkichga erishib bo'lmasligini ko'rsatib bermoqda. Chunki zamonaviy innovatsion texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot asrida har qanday tavakkalchiliklarga tura oladigan raqamli tadbirkor kerak.

Fikrimizcha, bunday tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish uchun davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlarining raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini yuqori ta'minlovchi mezonlar ishlab chiqilib, amaliy natijasi davlat nazorati ostida bo'lishi lozim.

Mohiyatan, tadbirkor va ishlab chiqarish omillari o'ttasida qonuniy jihatdan aniqlik ta'minlangan bo'lishi darkor. Chunki tadbirkor faoliyat yuritar ekan, u bevosita davlat bilan birga harakatni amalga oshirishga majbur bo'ladi.

Fikrimizning tasdig'i sifatida yurtboshimizning "...ilg'or tajribalar asosida, barcha darajadagi nazorat qiluvchi idoralarda yangi zamonaviy tizim joriy etilishi shart. Ana shu tizim orqali har bir korxona va tadbirkor bo'yicha alohida-alohida ish olib borib, ularning qonuniy faoliyat yuritishini ta'minlash, tekshirishni esa so'nggi favqu-lodda chora sifatida adolatli o'tkazish lozim" deya ta'kidlab o'tganlarini keltirishimiz maqsadga muvofiqdir [2].

Bu amaliy ishlar bejizga emas, albatta, yaratilayotgan imkoniyatlarga qaramasdan tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda tadbirkorlarimiz qator muammolarga duch kelayotgani masalani dolzarbligini ko'rsatib beradi. Shundan kelib chiqib, mavjud imkoniyat hamda masalalarga nisbatan tanqidiy yondashib, tadbirkorlik subyektlarining yuqori daromad olishi va shu asosda tadbirkorlik faoliyatining hamda mamlakat iqtisodiyotining rivojiga to'siq bo'layotgan omillarni aniqligicha o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'yidik. Buning uchun tadbirkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri tadqiqot ishi mavzusi doirasida ularning faoliyatidagi mavjud muammolar va imkoniyatlardan qay darajada foydalana olayotganliklari xususida anonim so'rovnama o'tkazildi va tahlil qilindi.

"Raqamli O'zbekiston-2030" milliy dasturi doirasida yurtimizda moliya-bank tizimini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha ustuvor loyihalarni amalga oshirish asosiy vazifa sifatida ko'rilmoxda [3].

Bu esa o'z navbatida 2025-yilga kelib dunyoda 30 ga yaqin aqlii shaharlar paydo bo'lishi, ularning 5 foizi Shimoliy Amerika va Yevropada joylashishi mumkinligining kutilayotganligi ham raqamli marketingning istiqbolidan dalolatdir. Raqamli marketing faoliyati katta biznesga aylana borib, 2022-yildagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, marketing budgetlari kompaniyalar daromadlarining o'ttacha 11,2 foizini tashkil etadi. AQShda bu yillik sanoat xarajatlarining 196 mlrd AQSh dollari miqdoridan ko'proqqa teng. Buyuk Britaniyada 24,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etmoqda [4].

Mazkur dalillarning isboti sifatida birgina g'arbda raqamli imkoniyatlarga mos ravishda shakllanayotgan va ularni kengroq targ'ib etayotgan kompaniyalar samarali faoliyat yuritayotgan biznes vakillariga aylanib borayotganligini ko'rish mumkin (masalan: Apple, Microsoft, Facebook, Alphabet, AT&T, Amazon, Verizon Communications, Google kabilar) [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadbirkorlik subyektlar faoliyatida raqamli marketing samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlari bir qator mahalliy va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Xususan, rus tadqiqotchilaridan M. V. Zaxarova, M. A. Kurasova, T. V. Deynekin, V. M. Komarov, S. A. Mixalev va S. G. Pesikovlar raqamli marketing samaradorligini baholashni raqamli marketing kommunikatsiyalari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi [6, 7, 8, 9, 10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda nazariy va amaliy o'rganish, tizimli tahlil va yondashuv, so'rovnama, statistik kuza-tish, taqqoslash, statistik guruhash, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish yondashuvlaridan foydalilanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi progres jarayonlari raqamli boshqaruvi tizimining ilg'or tajribalarini O'zbekiston iqtisodiyotida ham qo'llash vaqtি kelganligini ko'rsatib bermoqda. Ma'lumki, davlat bilan tadbirkor faoliyatini transformatsiyalashuvni hozirgi kunda xalqaro amaliyotda elektron tizim orqali amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, "Digital government", "Digital marketing", "Digital management", "Kaizen", "Just in time", "Big Data" va "Cloud Computing" tizimlarini amaliyotga joriy qilinishi mamlakat va tadbirkor uchun shaffof qaror qabul qilinishida muhim qadam bo'ladi. O'ylaymizki, O'zbekistonda bu tizimni qabul qilinishi tadbirkorlarni qiyab kelayotgan muammolarga yechim bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Respublikamizning qator viloyat va shaharlarda tadbirkorlarning raqamli marketing texnologiyalarini o'z faoliyatlariga joriy etish holatini baholash va faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar so'rovnama asnosida tahliliy o'rganildi. O'tkazilgan so'rovnomada Respublikamizning barcha viloyatlari




va Toshkent shahridan 500 nafar tadbirkorlik subyektlari ishtirok etdi. Respondentlar tomonidan berilgan xulosalarga muvofiq, quyidagi tahliliy natijalar sarhisob qilinib chiqildi.




1-rasm: Tadbirkorlik faoliyatningiz respublikamizning qaysi hududlarida olib boriladi¹

1-diagrammaning tahliliy natijalaridan bilib olishimiz mumkinki, so'rvonomada jami 500 nafarga yaqin tadbirkorlik subyekti ishtirok etgan bo'lib, ularning aksariyat qismi, ya'ni 117 nafari Toshkent shahrida faoliyat olib boradi.



2-rasm: Tadbirkorlik faoliyatningiz qaysi toifaga mansub ekanligini belgilang²

O'tkazilgan so'rvonoma natijalariga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati qaysi toifaga mansub ekanligini aniqlash uchun so'ralgan savolga tadbirkorlik subyektlarining 463 nafardan 61,8%i kichik, 31,3%i o'tta va 6,9%i yirik tadbirkorlik subyektlariga tegishli ekanligini ma'lum qilgan. Demak, tadbirkorlik subyektlarining aksariyat qismini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tashkil etadi va bu bizga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari misolida raqamli marketingdan foydalanishning hozirgi holatini aniqlashda qo'l keladi .




3-rasm: Korxonangiz qaysi sohada faoliyat yuritishga ixtisoslashgan³

465 nafar respondentlar tomonidan berilgan javoblarga ko'ra, 189 ta (40,6%) xizmat ko'rsatish sohasida, 152 ta (32,7%) tijorat sohasida, 146 ta (31,4%) ishlab chiqarishda va 17 ta (3,7%) moliyaviy sohada faoliyat yuritayotgan subyekt ekanligi aniqlandi. Natijalardan ma'lum bo'limoqdaki, tadbirkorlik subyektlarining eng katta qismi xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelmoqda.

1 Mualif tomonidan o'tkazilgan so'rvnomalar natijasida tayyorlandi.


2 Mualif tomonidan o'tkazilgan so'rvnomalar natijasida tayyorlandi.

3 Mualif tomonidan o'tkazilgan so'rvnomalar natijasida tayyorlandi.




4-rasm: Tadbirkorlik faoliyatizingiz qancha vaqtidan buyon olib borayapsiz? (Vaqt oralig'ida belgilang)⁴

Tadbirkorlik faoliyatining qancha vaqtidan buyon olib borilayotganligi so'ralsan bandda respondentlarning 49 %'i 1-3 yildan beri, 21 %i 3-5 yildan beri, 11,5% esa 5-7 yildan beri, 18,4%ni 10 yildan beri faoliyat yuritib kelayotganligi ma'lum bo'ldi. Bundan tushunishimiz mumkinki, so'nggi yillarda iqtisodiyotda olib borilayotgan islohotlar yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.



5-rasm: Tadbirkorlik faoliyatizingiz faqat ichki bozorga mo'ljallanganmi yoki tashqi bozorni ham qamrab oladimi?⁵

5-rasmda keltirilgan diagramma tadbirkorlik subyektlarining faoliyati tashqi bozor uchun yoki ichki bozorga mo'ljallanganlik holatini aniqlash uchun berilgan savol natijasini ko'rsatmoqda. 457 nafar subyektning 84 %ining faoliyati aynan ichki bozor uchun mo'ljallanganligini raqamlar ko'rsatmoqda. 14 % subyekt faoliyatida ichki bozorni ham tashqi bozorni ham qamrab oлgанинни ма'lum qilmoqda. Afsuski, faqat tashqi bozor uchun mahsulot ishlab chiqarayotgan tadbirkorlik subyektlari so'rovnomada 2 %ni tashkil etgan. Taqriban olganda, ushbu ko'rsatkich mamlakatimiz iqtisodiyotidagi aynan muammoli jihat hisoblangan tashqi eksportni rivojlantirish masalasi hali ham oqsayatganligi, bu borada amalga oshirilgan islohotlar o'zini ma'lum darajada oqlamayotganligidan dalolat bermoqda.




6-rasm: Korxonangizning o'rtacha bir oylik daromadi qancha summani tashkil etadi?⁶

Ushbu diagramma tadbirkorlik subyektlarining faoliyatlaridan olayotgan bir oylik daromadi qancha ekanligini ifodalab, unga ko'ra, so'rovnomada qatnashgan tadbirkorlik subyektlarining 59,2 %ining bir oylik daromadi 50 mln dan kam ekanligini ko'rishimiz mumkin. 20,8 % 50 mln dan – 100 mln gacha, 100 mln dan 500 mln gacha 8,1%, 500 mln dan 1 mln gacha 5,5 %, 1 mln dan ortiq 6,4 % bir oylik daromadni tashkil etmoqda. Bundan ko'rinadiki, 50 mln dan kam daromad oluvchi respondentlar tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismini tashkil etmoqda. Albatta, bu yaxshi natija emas, taqqoslash uchun 1 mln dan yuqori oylik daromadga ega bo'layotgan subyektlar soni bor yo'g'i 29 tani tashkil qilmoqda.

4 Mualif tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida tayyorlandi.


5 Mualif tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida tayyorlandi.

6 Mualif tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida tayyorlandi.




7-rasm: Korxonangizning o'rtacha bir oylik reklama xarajatlari qancha summani tashkil etadi?⁷

7-rasmda korxonaning o'rtacha bir oylik reklama xarajatlari qancha summani tashkil etishi to'g'risidagi so'rovga respondentlar tomonidan berilgan javob natijalari keltirilgan bo'lib, unga muvofiq 70,5 % tadbirkorlik subyekti reklama uchun xarajat qilmasligini ma'lum qilgan. Bu so'rovnomada ishtirok etgan 457 ta respondentning 322 tasi o'z faoliyatida umuman reklamadan foydalanmasligini anglatadi. 21 % ishtirokchi 10 mlndan kam miqdorda, 5,9 % ya'ni 27 ta tadbirkor 10 mlndan 50 mlngacha, 50 mlndan 100 mlngacha 1,5%, 100 mlndan yuqori 0,9%, ya'ni 4 nafar tadbirkor sarflayotgan bir oylik reklama xarajatlarini keltirib o'tgan.



8-rasm: Korxonangiz budgetida raqamli marketing xarajatlarining ulushi qancha?⁸

Tahlillar natijasi o'laroq, 8-rasm ma'lumotlari korxonaning budgetida raqamli marketing xarajatlarining ulushi qancha ekanligini ifodalab, unga muvofiq ko'rsatkichlar quyidagichadir: 1,1 % (5 ta) respondentlarning korxonaning budgetida raqamli marketing xarajatlarining ulushi 90% dan yuqori ekanligini, 1,1 % i 70 dan 90 foizgacha, 1,3 % i 50 dan 70 foizgacha, 3,3 % (15 ta) subyekt 30dan 50 foizgacha, 7,4 % (34 ta) 10 dan 30 foizgacha, 21,9 % (101 ta) tadbirkor 10 foizgacha sarflashini ma'lum qilgan. Ushbu so'rovning eng e'tiborli tomoni 64%, ya'ni 295 nafar tadbirkor o'z budgetida raqamli marketing xarajatlarining ulushi mavjud emasligini ta'kidlaganlidir.




9-rasm: Raqamli marketing faoliyatini amalga oshiruvchi autsorsing firmalarining yoki sohaning malakali mutaxassisini xizmatlaridan foydalanasisizmi?

9-rasmga muvofiq, tadbirkorlik subyektlarining raqamli marketing faoliyatini amalga oshiruvchi autsorsing firmalarining yoki sohaning malakali mutaxassisini xizmatlaridan 37,9 % tadbirkor qisman foydalanishini, aynan 37,9 % subyekt umuman foydalanmasligini ma'lum qilgan. 13,2 % respondent doimiy foydalanishini, 11% esa deyarli foydalanmasligini bildirgan.


7 Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida tayyorlandi.

8 Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida tayyorlandi.




10-rasm: Tadbirkorlik faoliyatizingizni yuritishda qanday raqamli texnologiyalardan foydalanasisz? (Birgalikda belgilashingiz mumkin).

Navbatdagi diagramma tadbirkorlarning o'z faoliyatini yuritishda qanday raqamli texnologiyalardan foydalanishini ifodalab, ularning aksariyati telefon 72,2 % (332 ta) va noutbuk 42 % (193 ta)dan foydalanishini ma'lum qilgan. Shuningdek, ko'pchilik respondentlar ijtimoiy tarmoqlar (32,2 %) va raqamli platformalar (11,3 %)ning muhimligini ta'kidlashgan hamda bu o'rinda wifiga ega bo'lish juda ham ahamiyatli ekanligini alohida e'tirof etishgan.




11-rasm: Tadbirkorlik faoliyatizingizda foydalanayotgan Wifi va internet trafik tezligini belgilang.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalanayotgan Wifi va internet trafik tezligini so'rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlarning aksariyati, ya'ni 58,9 % 4G internet tezligiga ega ekanligini bildirishgan. 10,7 % respondent hali ham 3G dan past, 22,4 % 3G internet trafik tezligidan foydalanishini aytib o'tishgan. 459 nafar tadbirkorning bor yo'g'i 8,7% esa 5G internet trafik tezligidan foydalanishini ma'lum bo'lgan.




13-rasm: Korxonangizda quyidagi internet reklama usullaridan qaysi biri qo'llaniladi? (Birgalikda belgilashingiz mumkin).

13-rasmga muvofiq, so'rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlik subyektlarining 147 tasi (33 %) ijtimoiy tarmoqlarda, 47 tasi (10,6 %) veb-saytlar va portallarda internet reklama usullaridan foydalanishini aytib o'tgan. Saytda boshqa sahifalarni qidirish xizmatlaridan 135 ta (30,3 %), kontekstli reklamadan esa 37 ta (8,3%) subyekt foydalanishini ma'lum qilgan.




14-rasm: Korxonangizda raqamli marketing faoliyatini tahlil qilishning quyidagi usullaridan qaysi biri qo'llanilishi ko'rsating: (Birgalikda belgilashingiz mumkin)

Yuqorida keltirilgan 14-rasm ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak, mazkur diagrammada tadbirkorlarning korxonada raqamli marketing faoliyatini tahlil qilishda, asosan, qaysi usullaridan foydalanishi so'rovnomalarda tahlil qilib o'rGANILGANDA subyektlar trafikni tahlil qilish xizmatlari (Yandex, Metrika, Google Analytics va boshqalar)dan 40,2 %, davomat statistikasi tizimlari (Liveinternet, Hotlog va boshqalar)dan 9,1 %, maqsadli auditoriya (Roistat, Mango Office, Calibri, Envybox va boshqalar) va tahlil qilish tizimlaridan 15,2 %, trafikni gipersegmentasiya qilish tizimlari⁹ (Yagla, Leadgenic, GiftTD va boshqalar)dan 15,2 %ni tashkil etishi aniqlandi. Masalani eng e'tiborli tomoni 42,3 %, ya'ni 186 nafar tadbirkorlik subyektlari korxonada raqamli marketing faoliyatini tahlil qilishda biror bir usullardan foydalanmasligini ma'lum qilgan.



15-rasm: Korxonangizda internet-trafikni monetizatsiya qilishning (tashrif buyuruvchini mijozga aylantirish) qanday usullari qo'llaniladi? (Birgalikda belgilashingiz mumkin).

15-diagramma ma'lumotlaridan ko'rindaniki, tadbirkorlik subyektlarining internet-trafikni monetizatsiya qilishning (tashrif buyuruvchini mijozga aylantirish) qanday usullari qo'llanishi borasida o'tkazilgan so'rovnomalarda ko'ra, onlayn konsalting xizmatlari 36,1 %, qayta qo'ng'iroq qilish xizmatlari 15,8 %, CRM (potensial mijozlar bazasini saqlash) 6,6 %, mijozlarni "ta'qib" qilish 3,7 %, xatti-harakatlar omillarini yaxshilash xizmatlari (onlayn kalkulyatorlar, tovarlar va xizmatlar uchun onlayn filtrlar, vidjet kartalari va boshqalar)dan 15,3 %, shuningdek, mazkur monetizatsiya qilishning biror bir usullardan foydalangan tadbirkorlar 39,7 %ni tashkil etmoqda.




16-rasm: Raqamli marketing usullaridan foydalanganda maqsadli auditoriya (mijoz/iste'molchi) birliklaridan olingan har bir sotuv hajmini hisoblaysizmi?

9 Пояснение: сервисы гиперсегментации трафика позволяют каждому посетителю интернет-сайта отображать страницы интернет-сайта с контентом максимальной степени персонализации (изменяется заголовок записи, текстовые блоки, изображения и иллюстрации в зависимости от запроса, по которому пользователь перешел на интернет-сайт).




16-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asosan, tadbirkorlarning raqamli marketing usullaridan foydalanganda maqsadli auditoriya (mijoz/iste'molchi) birliklaridan olingen har bir sotuv hajmi o'tkazilgan so'rovnomalalar nati-jasida ma'lum bo'ldiki, unga ko'ra 13,8 % respondentlar har doim ham emas, 22 % tadbirkorlar aniq javob bera olmasliklarini, 27,7 % ishtirokchilar yo'q deb, 36,5 % respondentlarning aksariyat qismi ha deb javob berishgan.




17-rasm: Raqamli marketing faoliyatida sotuvdan tushgan tushumni internet-reklama xarajatlari (internet-saytga tashrif buyuruvchilardan kelayotgan foyda)ga nisbati asosida baholab borasizmi?

17-rasmda keltirilgan tadbirkorlarning raqamli marketing faoliyatida sotuvdan tushgan tushumni internet-reklama xarajatlari (internet-saytga tashrif buyuruvchilardan kelayotgan foyda)ga nisbati asosida baholab borishi xususida o'tkazilgan so'rovnomaga asosan 11,3 % i har doim ham emas, 21,5 % i aniq javob bera olmayman, 26,5 % i baholab borishini, respondentlarning katta qismi 40,6 % i baholab bormasligini ma'lum qilgan.



18-rasm: Pandemiya davrida moliyaviy holatingizni qancha vaqt ushlab tura oldingiz?


Yuqorida keltirilgan diagrammaning tahlil natijalariga ko'ra, tadbirkorlarning pandemiya davrida moliyaviy holatini qancha vaqt ushlab tura olishligi so'rovnomalarda quyidagicha o'z aksini topdi, ya'ni 12,8 % tadbirkorlar 3 oydan 6 oygacha, 16,7 % tadbirkorlar 1 oycha, 21,9 % tadbirkorlar 6 oydan ziyod, 23,3 % tadbirkorlik subyektlari 1 oydan kam muddat oralig'ida o'z moliyaviy holatini saqlab turganliklarini ma'lum qilgan. Bizning tadqiqot ishimizning mavzysi anchagini dolzarbli ayni shu o'rinnlarda yaqqol sezilmoqda. Chunki 23,3% tadbirkorlik subyektlari 1 oydan kam muddat davomida o'z moliyaviy holatini saqlab tura organliklari iqtisodiyotimiz uchun juda ham ayanchli holatdir. 16,7 % tadbirkorlar 1 oycha, 25,3 % subyekt 1 oydan 3 oygacha faoliyatini yurita olgan. Agar bu raqamlarni umumlashtiradigan bo'lsak, 65,3 % tadbirkorlik subyektlari pandemiya davrida 3 oygacha vaqt mobaynida moliyaviy holatini saqlab turgan. Demak, ko'pchilik tadbirkorlik subyektlari har qanday bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlar uchun tayyor emas. Bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyoti barqarorligi uchun yaxshigina xavf tug'diradi deb ayta olamiz. Bu o'rinda e'tibor qaratadigan jihat esa aynan 65,3 % subyekt o'z budjetida raqamli marketing xarajatlarining ulushi umuman mavjud emasligini ma'lum qilgan bo'lib, 295 nafar tadbirkor nisbatiga to'g'ri kelayotganligidir. Bu shuni anglatadiki, raqamli asrda faoliyat olib borayotgan har qanday tadbirkor raqamli iqtisodiyot tizimida zamon bilan hamnafas bo'lmas ekan, u hech qachon rivojlana olmaydi, har qanday yuz berishi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlardan chiqib keta olmaydi.



19-rasm: Pandemianing tadbirkorlik faoliyatingizga ta'siri qanday bo'ldi?




Mazkur diagramma ma'lumotlarini tahlil etish asnosida ma'lum bo'ldiki, pandemiya sharoitida tadbirkorlarning faoliyatiga ta'sir etish holati 14,6% respondentlar tomonidan pandemiya davrida faoliyat yuritmagani, 18,7% tadbirkorlar faoliyati doimgidek davom etganligi, 27,5% so'rovnoma ishtirokchilari tadbirkorlik faoliyatini vaqtinchalik to'xtatganligini, 39,2% tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritish rejimi o'zgarganligini ma'lum qilgan.



20-rasm: Pandemiya sharoiti tadbirkorlik faoliyatizingizda aynan nimalarga salbiy ta'sir ko'rsatdi? (Birgalikda belgilashingiz mumkin)

20-diagramma ma'lumotlariga ko'ra, pandemiya sharoiti tadbirkorlarning faoliyatida aynan nimalarga salbiy ta'sir ko'rsatganligi so'rovnomalarda o'rganilganda mahsulotlarni yetkazib berishga 40,9%, ishchi kuchida muammo bo'lishiga 30,1%, bozorga chiqishda 31,3%, sotuv hajmining tushib ketishiga 36,1 %, potensial mijozlarning soni kamayishiha 32% olib kelganligi ma'lum bo'ldi.



21-rasm: Pandemiya davrida moliyaviy sharoitingizdagi tashvishlaniruvchi holatlarni nimalarda izohlaysiz? (Birgalikda belgilashingiz mumkin).

21-diagramma ma'lumotlariga ko'ra, tadbirkorlarning pandemiya davrida moliyaviy sharoitini tashvishlaniruvchi holatlari o'rganilganda kutilmagan besaromjomlik 30,5 %, xom ashyo narxining oshishi 30 %, boshqa xarajatlar 36,4%, masalaning eng e'tiborli tomoni tadbirkorlik subyektlari foydasining kamayishi 49,5 %ni tashkil etdi. Bundan ko'rindaniki, tadbirkorlik subyektlar faoliyatida moliyaviy menejment tizimini takomillashtirishda raqamli marketingga e'tibor qaratish masalasi niyoyatda dolzarbdir.

Yuqorida so'rovnomadan ma'lum bo'ldiki, so'rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlik subyektlarining aksariyat qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridir. Ko'rib o'tilgan tahlili natijalardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, ayni paytda, mamlakatimizdagagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatidagi mavjud muammolar qatoriga aynan raqamli muhitga to'laqonli o'tilmaganligi, raqamli marketing imkoniyatlaridan foydalana olmaslik, ularni zamon bilan hamnafas bo'lishiga, faoliyatining samarali rivojlanishiga halal berayotganligining guvohi bo'ldik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot ishi mavzusi doirasida tanlab olingan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi mavjud vaziyatni hal etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni lozim deb hisoblaymiz:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining xorijiy uskuna va zamonaviy minitexnologiyalarni xarid qilish bo'yicha mavjud bozor konyukturasini chuqr o'rganish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'ttasidagi o'zaro raqobatbardoshlik muhitini oshirishda davlat tomonidan ko'maklashish;



- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan bozorning ichki va tashqi imkoniyatlari to'g'risida axborot almashinuvini takomillashtirish;
- xalqaro tadbirkorlik subyektlari bilan iqtisodiy hamda savdo-sotiq jarayonlarida integratsion munosabatlarni yaxshilashda iqtisodiy-savdo geografiyasini kengaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini ma'lum bir sohaga ixtisoslashuvida ilmiy asoslangan qarashlarni oshirib borish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda yirik korxonalar o'rtasida korporativ aloqalarni yaxshilash;
- yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan noqonuniy tadbirkorlik subyektlar sonini qisqartirish;
- investitsiyalarning hududiy bir yoqlamalik xususiyatini oldining olish maqsadida, viloyatlarni rivojlanganlik darajasi bo'yicha 3 guruhga bo'lib, sust rivojlangan mintaqalarga investorlar uchun ko'proq manfaatdorlik, moyillik yaratish;
- xorijiy erkin industrial zonalarda tovarlar eksporti amaliyotini o'rnatish va ularning ijobiylarini yurtimizda qo'llash;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish va bu orqali ularning eksport salohiyatini kuchaytirish;
- mamlakatimizga kiritilayotgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni faol jalb etishda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ahamiyatini yuksaltirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlar faoliyatiga noqonuniy va asossiz ravishda aralashishlarning oldini olish.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaathnomasi. <http://aza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Oliy Majlisiga Murojaathnomasi 2020-yil 24-yanvar. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son.
4. <https://megatrands.ru>
5. Top 100 Digital Companies I/ Forbes (publishing house) <https://www.forbes.com/top-digital-companies/list/#tab:rank> (murojaat sanasi: 01.12.2021 y.)
6. Дейнекин Т. В. Оценка эффективности предпринимательской деятельности в сфере интернет-рекламы: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. –М., 2003. –С. 19–23.
7. Курасова М. А. Совершенствование маркетинговой деятельности предприятий на основе внедрения интернет-технологий: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. –М., 2005. –С. 19.
8. Рязанцев В. Д. Большая политехническая энциклопедия. –М.: Мир и Образование, 2011. –С. 355.
9. Самойлов И. В. Знание-центрическая методика перехода предприятий к деятельности на основе интернет-маркетинга // Креативная экономика. – 2011. –№ 1. –С. 117–123.
10. Михалева Е. П., Федотов С. А. Оценка эффективности мероприятий интернет-маркетинга // Известия Тульского государственного университета. Серия: Экономические и юридические науки. –2015. –№ 3-1. –С. 92.

Yashi

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

